



STATE POLICY FOR THE DEVELOPMENT OF COMPETITION IN UZBEKISTAN

¹Kamolov Dostonbek Rustam ugli, ²Asrayev Shavkat Bakhtiyar ugli

¹Teacher of the Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan.

²Student of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan.

ПОЛИТИКА ГОСУДАРСТВА ПО РАЗВИТИЮ КОНКУРЕНЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

¹Камалов Достонбек Рустам угли, ²Асраев Шавкат Бахтиер угли

¹Преподаватель Джизакского филиала Национального университета Узбекистана.

²Студент Джизакского филиала Национального университета Узбекистана.

O'ZBEKISTONDA DAVLATNING RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH SIYOSATI

¹Kamolov Dostonbek Rustam o'g'li, ²Asrayev Shavkat Baxtiyor o'g'li

¹O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali o'qituvchisi.

²O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali talabasi.

abstract

This article analyzes the trends in the development of the competitive environment in modern Uzbekistan. In recent years, decrees, laws, implemented activities are discussed in this direction. At the same time, comments were made on what direction to move to increase the competitiveness of our state.

аннотация

В данной статье проанализированы тенденции развития конкурентной среды в современном Узбекистане. В последние годы обсуждались принимаемые в этом направлении указы, законы, реализуемые мероприятия. В то же время были высказаны соображения относительно того, в каком направлении двигаться для повышения конкурентоспособности нашего государства.

annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy O'zbekistonda raqobat muhitini rivojlantirish tendensiyalari tahlil

qilingan. So'nggi yillarda bu yo'nalishda qabul qilinayotgan farmonlar, qonunlar, amalga oshirilayotgan tadbirlar muhokama etilgan. Shu bilan birga davlatimizning raqobatbardoshligini oshirish uchun qanday yo'nalishda harakat qilish haqida mulohazalar bildirilgan.

Keywords:

competitive environment, antimonopoly, innovation, market conditions, protectionism policy.

Ключевые слова:

конкурентная среда, антимонопольное законодательство, инновации, рыночная конъюнктура, политика протекционизма.

Kalit so'zlar:

raqobat muhiti, antimonopoliya, innovatsiyalar, bozor sharoiti, proteksionizm siyosati.

©2023. Kamolov Dostonbek Rustam ugli, Asrayev Shavkat Bakhtiyar ugli.

Kirish

Dunyo tajribasiga ko'ra, Monopoliyaga qarshi qonunchilik, asosan, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha shakllandi. Birinchidan, ishlab chiqarish (tarmoq)ni boshqaruvchi qonunlar. Bu qonunlarga binoan, odatda, hech bir korxonalar (korporatsiya)ning biror turdagi mahsulot ishlab chiqarishning yarmidan ortig'ini nazorat qilishga huquq berilmaydi. Ikkinchidan, barcha yirik korporatsiyalar ishtirokchilari boshqa korporatsiyalar aksiyalarining ma'lum cheklangan miqdoridan ortig'iga ega bo'la olmasligi belgilab qo'yiladi. Uchinchidan, narxlarni bozor muvozanati belgilagan darajadan yuqori yoki past turishini, narx ustidan kelishib olishni taqiqlovchi kartellarga qarshi qonunlar joriy qilinadi.

Tahlil va muhokamalar

Davlatning monopoliyalarga qarshi siyosati milliy iqtisodiyotida raqobat oldindan shakllanib bo'lgan mamlakatlarda raqobatchilik muhitini takomillashtirishga, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda esa bu muhitni shakllantirishga qaratilgan. Bozorda monopoliyani o'rnatishga urinishlar va monopol mavqeni suiiste'mol qilishni ta'kidlaydigan trestlarga qarshi birinchi qonun — Sherman qonuni AQShda 1890-yilda qabul qilingan. Monopoliyaga qarshi qonunchilik va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar har bir mamlakatda sharoit taqozo etgan shakllarda amal qiladi. Rivojlangan barcha davlatlarda sog'lom raqobat muhitini himoya qilish maqsadida turli ko'rinishdagi, monopolistik foaliyatlar ustidan davlat tomonidan tartibga solish amalga oshiriladi. Masalan, AQShda monopoliyaga qarshi davlat siyosati — Federal savdo komissiyasi va Adliya departamentining trestlarga qarshi boshqarmasi, Rossiyada — Monopoliyaga qarshi siyosat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash vazirligi, Yaponiya va Janubiy Koreyada — Halol raqobat bo'yicha komissiya, Yevropa Ittifoqida esa — Raqobat bo'yicha komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekistonda monopoliyaga qarshi organ 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Monopoliyaga qarshi va narx siyosati bosh boshqarmasi sifatida tashkil qilindi. 1996-yil 15-mayda ushbu boshqarma negizida Moliya vazirligi huzurida Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi tashkil etildi. 2000-yil 2-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida" gi farmoniga asosan monopoliyaga qarshi organ Moliya vazirligi tarkibidan chiqarilib, mustaqil davlat qo'mitasiga aylantirildi.

O'zbekiston davlatining raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida xususiylashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchilikning boshqa shakllarini vujudga keltirish asosiy o'rin tutadi. Xususiylashtirish natijasida, birinchidan, mulk o'z

egallari qo‘liga topshirilsa, ikkinchidan, ko‘p ukladli iqtisodiyot va raqobatchilik muxiti vujudga keladi.

Raqobatni shakllantirishda iqtisodiyotning davlat korxonalarini saqlanib qolishi kerak bo‘lgan sohalaridagi korxonalar uchun ularning bozor sharoitlariga tarkiban moslashuviga imkon beradigan xo‘jalik yuritish mexanizmini ishlab chiqarish muhim o‘rin egallaydi. Bu mexanizm davlat korxonalarini iqtisodiy jihatdan erkin bo‘lishini, ularning faoliyati tijoratlashgan bo‘lishini nazarda tutadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida raqobatning asosiy usuli narx bo‘lganligi sababli, narxlarni erkin qo‘yib yuborish raqobatli muhitni vujudga keltirishning asosiy talabi hisoblanadi. Shu maqsadda O‘zbekistonda “Monopolistik faoliyatini cheklash to‘g‘risida” gi qonun (1992-yil 3-avgust) qabul qilindi hamda uning asosida raqobatchilikni rivojlantirishga karatilgan bir turkum normativ hujjatlar ishlab chiqildi. Mazkur qonunga ko‘ra, bozorda ataylab takchilik yaratish, narxlarni monopollashtirish, raqobatchilarning bozorga kirib borishiga to‘sqinlik qilish, raqobatning g‘irrom usullarini qo‘llash man etiladi.

Hozirgi davrda O‘zbekistonda, agar korxonalar ishlab chiqargan muayyan mahsulotlar tovarlar bozoridagi shunday mahsulotning 35% dan ortiq bo‘lsa, bu korxonalar monopolistik korxonalar sifatida Davlat reyestriga kiritiladi (oziq-ovqat tovarlari guruhi uchun bunday mezon darajasi 20% qilib belgilangan).

Respublikada monopoliyalarni ro‘yxatiga kirgan korxonalar (tarmoq)larning bozordagi mavqegini tartibga solishda bir qator usullardan: a) monopol mavqeidagi mahsulotlarga narxlarning eng yuqori darajasini yoki rentabellik chegarasini belgilab qo‘yish; b) o‘z monopol mavqegini suiiste‘mol qilgan monopolistik birlashmalarni bo‘lib tashlash yoki maydalashtirish usullaridan foydalaniladi. O‘zbekiston Respublikasining “Iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” (1996-yil 26-aprel) qonuni asosida g‘irrom raqobatga, shu jumladan, bozorlarga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarning kirishiga yo‘l qo‘ymaydigan mexanizmlarni yaratishga ham alohida e‘tibor berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida” qonuni (1996-yil 27-dekabr) monopolistik tomonidan hukmronlik mavqegini suiiste‘mol qilishning oldini olish va monopoliyadan chiqarish va sog‘lom raqobat muhitini yaratish maqsadlarini ko‘zlaydi. Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida raqobat muhitini shakllantirish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas. Bu tarmoqdagi korxonalar, odatda, “tabiiy monopoliyalarni” deb ataladi. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiiy monopoliyalarni to‘g‘risida” gi qonunida (1997-yil 25-aprel; yangi tahrirda 1999-yil 19-avgust) respublikada tabiiy monopoliyalarga nisbatan davlat siyosatining huquqiy asoslari belgilab berildi. O‘zbekistonda iqtisodiy

islohotlarning tub mohiyatidan kelib chiqqan holda monopoliyalarga qarshi va tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonunchilik takomillashtirilib, ularning Yevropa Ittifoqi va boshqa rivojlangan qonunchilik andozalariga mos kelishi ta'minlab borilmoqda.

O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi hamda tashqi savdoning liberalizatsiyalashuvi jarayonlarining kuchayishi sharoitida ichki bozorda raqobat muhitini ta'minlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish talab qilinadi. Bu esa mamlakatda raqobat muhitining shakllanish jarayonini tadqiq etish, sohaga doir qonunchilikni takomillashtirish, antimonopol siyosatni amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirishni obyektiv zaruratga aylantiradi. Shu bois, raqobatni rivojlantirish tarkibiy islohotlarni amalga oshirishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2020-yil 28-mayda o'tkazilgan selektor yig'ilishida "Raqobat bo'lmasa, sifat bo'lmaydi, narx tushmaydi. Zamon o'zgarapti, lekin monopol korxonalar o'zgarolmayapti. Qat'iy choralar ko'rish vaqti keldi, iqtisodiyotda bu hayot-mamotimiz", dedi. So'nggi yillarda O'zbekistonda Monopoliyaga qarshi qo'mita tomonidan 42 ta normativ-huquqiy aktlar loyihasi ishlab chiqilgan, davlat unitar korxonalari soni 22 foizga qisqartirilgan, 75 tashkilotda komplayens nazorat tizimi yo'lga qo'yilgan, sog'lom raqobat talablariga javob bermaydigan davlat va mahalliy hokimiyat organlarining 1,5 mingta qarori bekor qilingan. Ushbu raqamlar mamlakatimizda sog'lom raqobat muhitini yaratish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar to'g'risida darak bermoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 14-yanvardagi PF-5630-son Farmoniga ko'ra Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasining alohida davlat muassasasi sifatida ajratilishi maqsadga muvofiq deb topildi. Ushbu qo'mitaning qator asosiy vazifalari belgilandi. Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi qoshida raqobat siyosati va tabiiy monopoliyalar muammolarini tadqiq etish markazi yaratilmoqda. Raqobat muhitini doimiy baholash tizimini yaratish maqsadida raqobatni rivojlanish Indeksi joriy etiladi.

So'nggi ikki yilda davlat unitar korxonalari soni 22 foizga, davlat ishtirokidagi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 23 foizga va davlat ishtirokidagi korxonalar miqdori 35 foizga qisqartirildi. 2020-yil 7-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni chiqdi. Unga ko'ra "Raqobat to'g'risida" va "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida"gi qonunlar birlashtirib, yangi qonun loyihasi ishlab chiqiladigan bo'ldi. Ushbu qonun loyihasi hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan tasdiqlangan.

Shuningdek, yuqorida nomi keltirilgan farmonga muvofiq “2020-2024 yillarda tovar va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish strategiyasi” ham qabul qilindi. 2022-yil 29-yanvarda kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida keltirilgan vazifalarni amalga oshirish yo‘nalishida “Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni (PF–228-son, 30.09.2022 y.) qabul qilindi. Ushbu farmonga muvofiq eksportchi korxonalarini ochiq tanlov orqali saralab, ularni yetakchi eksporterlarga aylantirish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha “Yangi O‘zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturi amalga oshirilmoqda va 2022-yil 20-dekabrda Davlat rahbari: “Yangi O‘zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturi o‘z samarasini bermoqda. Bir yilning o‘zida 2 mingga yaqin tadbirkorlar ilk bor tashqi bozorlarga chiqdi. Navbatdagi masala – 2023-yilda tayyor mahsulotlar eksportini qo‘shimcha 4 milliard dollarga oshirish asosiy maqsadimiz bo‘ladi”, deb ta’kidladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga ko‘ra biror normativ-huquqiy hujjat qabul qilinayotganda zaruriy ravishda uning raqobat muhitiga ta’siri o‘rganilishi kerak. Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi tomonidan 820 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar baholanib, taxminan ularning 70 foizida raqobatga zid keluvchi normalar borligi aniqlangan. Bundan tashqari, davlat va mahalliy ijroiya organlarining 1,5 mingta qarorlari raqobat muhiti talablariga javob bermasligi sababli bekor qilingan.

O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror va mutanosib rivojlanishi, jahon bozorida mustahkam o‘rin egallashi, aholi turmush darajasi va farovonligining yanada oshirilishi olib borilayotgan izchil davlat siyosatining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Jahonda iqtisodiy globallashtirish keng miqyosda ortib borayotgan bir sharoitda har qanday o‘zgarishlarga, ichki va tashqi bozor talablariga moslashuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni shakllantirish taqozo etiladi. Innovatsiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga keng joriy etish hamda mahsulot va xizmat turlarini muttasil yangilab borish hisobiga raqobatbardoshlikni ta’minlovchi infratuzilmalarni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ba’zi davlatlarda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadida proteksionizm siyosati yurgiziladi. X.Rajapov proteksionizm siyosati haqida fikr yuritib, bunday siyosat ba’zan salbiy oqibatlariga olib kelishini aytib o‘tadi. Uning fikricha:bu mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun “betashvish hayot”ni yuzaga keltiradi, “bu esa mahalliy tadbirkorlarda texnologik rivojlanishga bo‘lgan rag‘batni susaytiradi”. Proteksionizm siyosati foyda keltirishining yagona sharti – mahalliy korxonalariga xotirjam bo‘lib qolish imkonini bermaslikdir. Buni esa faqat mamlakatda

ichki raqobatni rivojlantirish orqaligina amalga oshirish mumkin. Raqobatbardosh korxonalarni xalqaro maydonga chiqishga undash kerak. Raqobat qonunchiligi juda ham serqirra. Raqobat siyosatining samaradorligi raqobat qonunchiligini shu sohaga mutasaddi xodimlarning va aholining qanday bilishiga ham bog'liq, shu sababli, xodimlar orasida xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda raqobat siyosati to'g'risida seminar, treninglar o'tkazish yaxshi samara beradi. Raqobat muhitini rivojlantirish uchun yuqorida ko'rsatilgan ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa, raqobatbardoshlikni rivojlantirish va mustahkamlash uchun innovatsiyalarga e'tibor berish kerak bo'ladi. Global innovation Index ko'rsatkichlariga ko'ra O'zbekiston 2022-yilda 132 davlat ichida 82 o'rinni egallagan. Bu esa o'tgan yilgi ko'rsatkichga nisbatan 4 punktga yuqori. Janubiy va Markaziy Osiyo 10 ta mamlakatlari iqtisodiyoti ichida O'zbekiston 3-o'rinni egalladi. Innovatsiya tushunchasining ta'rifini aniqlash uchun Immanuel Kantning "Axloqiylik metafizikasi asoslari" asaridagi etikani kategorik imperativ sifatidagi tushunchasining zamonaviy ishbilarmon insonga nisbatan ta'rifiga murojaat qilish mumkin. Bu konsepsiyani jahon xo'jaligi taraqqiyotiga ekstrapolyatsiya qilgan holda jamiyatning ijtimoiy-madaniy jarayonning odatiy an'alaridan faol tarzda voz kechayotganini ko'rishimiz mumkin. Globallashuv jarayonida ro'y berayotgan o'zgarishlarga muvofiq yangi paradigmalarni faol qidirish yuz bermoqda.

Tadbirkorlik sohasining shakllanayotgan mulk egalari va menejerlari yangi avlodi uchun innovatsiyalar biznesni muvaffaqiyatli olib borishning zaruriy sharti bo'lib qolmoqda. A.E.Norovning fikricha, innovatsiya – foydalanish uchun kiritilgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayon, sotuvlarning yangicha uslubi yoki ish amaliyotidagi, ish o'rinlarini tashkil etishdagi va tashqi aloqalarni o'rnatishdagi yangi tashkiliy uslub hisoblanadi.

Yaqinda Prezident Shavkat Mirziyoyevning farmoni bilan "Davlat raqobat qo'mitasi» asosida "Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi» (Antimonopoliya qo'mitasi) tashkil etilgani to'g'risidagi yangilik kishini quvontirdi. Alohida va mustaqil monopoliyaga qarshi kurashuvchi idora joriy iqtisodiy islohotlar zanjirida yetishmayotgan edi.

Bu kabi islohot mamlakatda 2000-yilda ham amalga oshirilgan — Moliya vazirligi tarkibidan mustaqil "Monopoliyadan chiqarish davlat qo'mitasi" ajratilgan edi. Biroq hukumatning 2012-yildagi qarori bilan "Monopoliyadan chiqarish davlat qo'mitasi" va "Davlat mulk qo'mitasi" yangi idoraga — "Davlat raqobat qo'mitasi"ga aylantirildi.

Afsuski, bu yangi tashkil etilgan qo'mita faoliyatida bevosita raqobatni rivojlantirish va monopoliyaga qarshi yo'nalish oz o'rin olgan edi. Davlat raqobat qo'mitasining 2012-yildan keyingi hisobotlari bunga dalolat bo'la oladi. Ularda asosan

davlat aktivlarini xususiylashtirish, sotish, boshqarish, nochor korxonalar bilan ishlash va hokazolar yoritilgan.

Ya'ni, aytishim mumkinki, 2012-yilda Davlat mulk qo'mitasi Monopoliyadan chiqarish davlat qo'mitasini "yutib yubordi". Bu esa mamlakatdagi raqobatni himoya qilishga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu sababdan, mustaqil Antimonopoliya qo'mitasi tashkil qilinishini bozor iqtisodiyotini qurishdagi to'g'ri qadam, deb hisoblayman.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytish joizki, fikrimizcha, O'zbekistonning xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsiyalarga ko'proq e'tibor berilishi, korporativ ijtimoiy mas'uliyat konsepsiyasini rivojlantirish yo'lida ommaning ongini yuksaltirish va shu konsepsiya g'oyalarini ishlab chiqarishga qo'llash kerak. Mamlakatimizda raqobat muhitini rivojlantirish yo'nalishida ko'p ishlar amalga oshirilmoqda, shu bilan birga, davlat korxonalari va xususiy korxonalar uchun teng imtiyozlar, teng sharoitlarni ta'minlash, noinsof tadbirkorlar va davlat xizmatchilari o'rtasida korrupsion kelishuvlarning oldini olish lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14 yanvardagi PF-5630-son Farmoni.
3. Norov A.E. Innovatsion faoliyat va uning natijalarini tijoratlashtirishning nazariy va uslubiy asoslari //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2020.
4. "O'zbekiston Respublikasining innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonuni.
5. Akramovich N. A. The priority of using innovative technologies in the agricultural education system //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.
6. Akramovich N. A. HISTORY, SUBJECT AND OBJECT OF FORMATION OF "MACROECONOMICS" //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 1. – C. 209-210.
7. Nizametdinov A. A. OLIY TA'LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 96-98.
8. Baxrom X., Alijon N., Aziz Z. THE ROLE OF THE PRIVATE SECTOR IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 130-136.
9. Xolmuradovich X. B. et al. BUSINESS ETHICS AND CULTURE, RULES FOR ITS WORK //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 184-191.
10. Akramovich N. A., Azamatovna U. S. TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: DOLZARB TENDENTSIYALAR VA STRATEGIK YONALISHLAR //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 36-40.

11. Худояров Р., Низаметдинов А. МАЛЫЙ И СРЕДНИЙ БИЗНЕС В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 6 Part 2. – С. 188-193.
12. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Durdona A. CONTENT AND FUNCTIONING OF THE MARKET ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 105-110.
13. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Sherzod Y. THE ORIGINS OF CRISES AND THEIR IMPACT ON THE ECONOMIC SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 89-94.
14. Akramovich N. A. et al. IMPACT OF HIDDEN ECONOMY ON SOCIETY IN UZBEKISTAN, WAYS TO REDUCE IT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 142-147.
15. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Shonazarovich B. S. MONOPOLY ORGANIZATIONS, THEIR BENEFIT AND HARM TO SOCIETY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 111-114.
16. Sojida D., Bahrom H., Ali N. THE ROLE OF THE ECONOMY IN SOCIETY //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2022. – Т. 2. – №. 18. – С. 309-315.
17. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Dildora F. DEVELOPMENT OF INNOVATIVE POLICY IN THE SPHERE OF EMPLOYMENT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 201-209.
18. Alijon N., Sirojiddin S., Azizbek A. FRANCHISE SYSTEM IN BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 250-257.
19. Susanna V., Ali N., Asliddin T. INNOVATIVE AND DEVELOPMENTAL ECONOMY OF UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 304-310.
20. Xolmuradovich X. B. et al. IMPORTANCE OF BANKING SYSTEM IN UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 218-224.
21. Raipovna V. S., Akramovich N. A., Matlab I. SEMANTIC MODULES IN THE LEXICAL SYSTEM OF THE LANGUAGE //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 230-237.
22. Kamolov D. R. O. G. L. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIYA VA AXLOQNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. NUU Conference 2. – С. 348-352.
23. Kamolov, D., & Ropiyeva, F. (2023). ECONOMIC CONSIDERATIONS IN ANCIENT CHINA. *Science technology&Digital Finance, 1(4)*, 220-225. <https://supportresult.uz/index.php/stdf/article/view/rfb>
24. Kamolov Dostonbek, "SPIRITUAL AND MORAL ENVIRONMENT OF SOCIETY", *SSAI*, vol. 1, no. 2, pp. 128–133, Oct. 2023, Accessed: Nov. 24, 2023. [Online]. Available: <https://supportresult.uz/index.php/ssai/article/view/89>
25. Spanov, M., & Kamolov, D. (2023). MODERN PROBLEMS AND SOLUTIONS OF DEMOCRACY AND MORALITY IN UZBEKISTAN. *Science technology&Digital Finance, 1(4)*, 168-172. <https://supportresult.uz/index.php/stdf/article/view/msdk>
26. Kamolov D. Davlat boshqaruviga oid axloqiy qarashlar //Адабиёт учкунлари. – 2021.
27. Камолов Д. Spiritual and moral environment of society //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 278-282.

28. Kamolov, D., & Karimqulova, O. (2023). ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF INTERNATIONAL ECONOMIC ORGANIZATIONS. *Science technology&Digital Finance*, 1(4), 199-202. <https://supportresult.uz/index.php/stdf/article/view/kdko>
29. Kamolov, D., & Kiliicheva, R. (2023). CONFUCIAN AND LEGIST DOCTRINE. *Science technology&Digital Finance*, 1(4), 187-192. <https://supportresult.uz/index.php/stdf/article/view/drkk>
30. Kamolov D. JAMIYATNING MA'NAVIY-AXLOQIY MUHITI //Social science and innovation. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 78-82.
31. Sirlibekov K. PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF CULTURAL TOURISM IN UZBEKISTAN. *Science technology&Digital Finance*, 1 (3), 123-131. – 2023.
32. Sirlibekov K. EVENT TOURISM CENTERS OF SPAIN //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 161-167.
33. Сирлибеков Х. Ш. Факторы и особенности реализации концепции оздоровительного туризма (СПА-туризма) в современной России //Казанский вестник молодых учёных. – 2023. – Т. 6. – №. 3. – С. 98-103.
34. Usmonova V., Esanov N. THE EXISTING INVESTMENT ENVIRONMENT IN THE CONSTRUCTION SECTOR OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Science technology&Digital Finance*, 1 (4), 31-40. – 2023.
35. Spanov M., Kamolov D. MODERN PROBLEMS AND SOLUTIONS OF DEMOCRACY AND MORALITY IN UZBEKISTAN. *Science technology&Digital Finance*, 1 (4), 168-172. – 2023.
36. Усмонова В. ХУДУДЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ //Economics and education. – 2022. – Т. 23. – №. 6. – С. 70-74.
37. Усмонова В. Б. ХУДУДЛАР ТАРАҚҚИЁТИДА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany). – 2022. – С. 139-143.
38. Sadullaevna U. V. The role of HEMIS in the management of the educational system of higher education institutions //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2023. – Т. 20. – С. 19-22.
39. Убайдуллаева В. Digitization-an important “Driver” of the development of New Uzbekistan //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 173-176.
40. Ubaydullaeva V. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TA'LIMNING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH MUAMMOLARI //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 132-143.
41. Ubaydullayeva V., Bozorboyev D. YAPONIYA IQTISODIY MO 'JIZASI VA UNING OQIBATLARI //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 26-32.
42. Убайдуллаева В. С. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ БОШҚАРИШДА НЕМИШНИНГ РОЛИ //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 24-29.
43. Shahzod M. O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 153-156.
44. Mansurov S., Mamatov F., Fazliddin M. COMPARISON OF THE CONCEPTS OF THE BUSINESS SEGMENT AND THE CENTER OF RESPONSIBILITY USED IN THE MANAGEMENT SYSTEM OF RETAIL ENTERPRISES //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 203-208.
45. Mansurov S., Kochimova S., Mukhtorov F. THE FINANCIAL STRATEGY OF THE ORGANIZATION AS A FACTOR OF ENSURING ECONOMIC SECURITY IN THE LONG TERM //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 209-213.
46. Mansurov S. O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTI BO 'YICHA PROGNOZLAR //Science technology&Digital finance. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 187-195.